

KEGEYLI ETNOTOPONIMLARI TARIXIDAN

Tureeva G.A

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti, Arxeologiya kafedrası docenti.

Smamutova N.B

70220301 "Tarix" (yo'nalishlar va faoliyat turi bo'yicha) ixtisosligi 2-bosqich magistranti.

Annotatsiya: Maqolada Kegeyli hududidagi etnotoponimlarning kelib chiqishi, tarixiy shakllanishi va ularning aholining etnik tarkibi bilan bog'liqligi ko'rib chiqiladi. Yer-suv nomlari orqali urug'-qabila nomlari, aholining joylashuvi va ko'chib o'rnashgan tarixi aniqlanadi. Tadqiqotda etno-toponimlarning etimologiyasi va semantik ma'nosi ochib beriladi. Bu nomlar Kegeyli tarixini va etnomadaniy jarayonlarni chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Tayanch so'zlar: Toponimika, etnos, migratsiya, xaritalar, qipchoq, qonli, keneges urug'lari;

Аннотация: В статье рассматриваются происхождение, историческое формирование этнотопонимов на территории Кегейли и их связь с этническим составом населения. По названиям земель и вод определяются названия родов и племен, расположение и история переселения населения. В исследовании раскрываются этимология и семантическое значение этно-топонимов. Эти названия помогают глубже понять историю Кегейли и этнокультурные процессы.

Ключевые слова: топонимика, этнос, миграция, карты, кипчаки, канлы, кенегесские роды;

Abstract: This article examines the origin, historical formation, and connection of ethnotoponyms in the Kegeyli region with the ethnic composition of the population. Through the names of land and water, the names of clans and tribes, the location of the population, and the history of migration are determined. The study reveals the etymology and semantic meaning of ethno-toponyms. These names contribute to a deeper understanding of Kegeyli's history and ethnocultural processes.

Keywords: Toponymy, ethnos, migration, maps, Kipchak, Kanly, Keneges clans;

Umumiy toponimika — geografik obyektlar nomlarining (toponimlarning) paydo bo'lishi, shakllanishi, rivojlanishi va funksiyalanish qonuniyatlarini lingvistik, tarixiy hamda geografik kontekstda tadqiq etuvchi fundamental integrallashgan fan tarmog'idir. U xaritada har bir nomni shunchaki lingvistik birlik emas, balki muayyan hududning o'tmishi, tabiati va ijtimoiy-etnik qiyofasini muhrlagan obyektiv tarixiy hujjat sifatida o'rganadi.

Toponimik tizimning rang-barang qatlamlari ichida etnotoponimika alohida o'rin tutadi. Zero, geografik makonni toponimik jihatdan modellashtirishda uning etnik

asoslarini, ya'ni xalqlar, qabilalar va urug'lar nomlaridan shakllangan etnotoponimlarni hisobga olmasdan turib, umumiy toponimikaning global qonuniyatlarini to'liq ochib berish imkonsizdir.

Ushbu qonuniyatlarni hududiy mikrotizimlar miqyosida o'rganish umumiy toponimika fanida alohida dolzarblik kasb etadi. Bu borada Qoraqalpog'istonning qadimiy hududlaridan biri bo'lgan Kegeyli tumani etnotoponimiyasi o'ziga xos boy lisoniy va tarixiy materialga ega. Kegeyli hududi uzoq asrlar davomida qoraqalpoq urug'-tayfalarining (xususan, Qo'ng'iro't arisi va boshqa etnik guruhlarining) o'tirishgan hamda ko'chib-qo'nish areali bo'lganligi sababli, uning mikrotizimidagi joy nomlari etnik o'zlikni konservatsiyalab saqlagan.

Masalan, hududdagi Qiyot (Qiat), Jaloir (Jalair), Qo'ng'iro't (Qo'ñirat), Ashamayli (Ashamaylı), Qora-uylik (Qara-uyli), Sho'yt (Shóyt) kabi o'nlab aholi punktlari, ovul va kanal nomlari shunchaki geografik koordinatalar bo'lmay, balki umumiy toponimika qonuniyatlarining mahalliy etnik substrat bilan qanchalik chambarchas bog'liqligini ko'rsatuvchi jonli dalillardir. Kegeyli oykonomiyasi va gidronimiyasini etnotoponimik jihatdan tahlil qilish, umumiy toponimikadagi "nom va etnos" munosabatlarini yangi ilmiy xulosalar bilan boyitishga xizmat qiladi.

Kegeyli tumani Qoraqalpog'iston Respublikasining markaziy hududlaridan biri bo'lib, tarixan turli etnik guruhlar yashab kelgan mintaqa sifatida alohida e'tiborga loyiq. Bu hududning geografik joylashuvi, Amudaryo deltasiga yaqinligi va boy tabiiy resurslari azaldan aholining markaziy punkt sifatida rivojlanishiga imkoniyat yaratgan. Shu bois, Kegeyli hududi nafaqat iqtisodiy va madaniy, balki etnik tarixiy nuqtai nazardan ham qiziqarli tadqiqot obyekti hisoblanadi.

Hududdagi tarixiy manbalarga ko'ra, Kegaylida qadim zamonlardan turli turkiy xalqlar va elatlar yashagan. Bu qavm va urug'larning nomlari bugungi kunda ham hududning ayrim qishloq, mahalla va tabiiy obyektlarida tasvirlanib, etnotoponimlarni tashkil etadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi, xususan, Kegeyli tumani uchun etnotoponimlar eng muhim tarixiy manba hisoblanadi. O'tgan asrlarning ko'p sonli yozma arxivlari yo'q bo'lgan sharoitda, qishloq, kanal va joy nomlari qoraqalpoq urug'larining joylashuv xaritasini, ularning migratsiya yo'llari va ijtimoiy ierarxiyasini qayta tiklashga imkon beradi. Kegeyli etnotoponimlarini o'rganish globallashuv va qishloq landshaftlarining transformatsiyasi davrida hududning madaniy o'ziga xosligini saqlab qolishga yordam beradi. Kegeyli nomi va uning ma'nosini, toponimik nomlanishini tahlil qiladigan bo'lsak, Kegeyli tumanining toponimik nomlari etimologiyasiga katta e'tibor berishimiz kerak. Bu haqida xalq afsonalarida ham, ilmiy asarlarda ham keng tarzda yozilgan. Ilmiy bashoratlarga ko'ra, ilgari ushbu hududda "Kurder" deb ataladigan daryo havzasi bo'lgan.

Qoraqalpoqlarning XVIII asrda (jung'or bosqinidan keyingi ikkinchi ko'chishda) hozirgi hududga qayta ko'chib o'rnashganidan so'ng «Kegeyli» atamasi keng tarqala boshlagan. Ayrim manbalarda Aleksandr Makedonskiy davrida ham bu yerlarda talay

toshqinlar va tabiiy o'zgarishlar yuz berganligi aytiladi. Bu esa Kegeyli kanalining qadim zamonlardan beri mavjud bo'lganligidan darak beradi. «Kegeyli» atamasining ma'nosi yuzasidan ikki asosiy qarash mavjud: birinchisi, o'simlik dunyosi bilan bog'liq bo'lib, kanal bo'yida va uning atrofida kegey daraxtlari qalin o'sganligi sababli, bu joy «Kegey eli» yoki «Kegeyli» deb atalib ketgan. Xalq bu daraxtlardan kundalik turmushida katta mahorat bilan foydalangan. Taniqli akademik Sobir Kamolovning (1953) fikricha, Kegeyli — qadimiy atama emas, u XVIII asrning boshlarida qoraqalpoqlarning shu kanal bo'yiga ko'chib kelib, uning boshlanishini qayta qazib, o'rnasha boshlaganidan keyin paydo bo'lgan.

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi XIX asrning 30-yillariga kelib, Kegeyli vohasi Xorazm hududidagi eng yirik dehqonchilik tumanlaridan biriga aylandi. Lekin aholining bu yerda o'rnashish jarayoni oson kechmagan. Afsonalarda aytilishicha, suv masalasidagi qiyinchiliklarni yechish uchun "14 urug'" bo'lib birlashgan Qo'ng'iroq, Qipchoq, Keneges, Mang'it kabi urug'larning biylari va oqsoqollari tez-tez maslahat qurib turgan. Tez-tez takrorlanib turadigan qurg'oqchiliklar va suv toshqinlari o'sha davrdagi aholi hayotiga jiddiy xavf tug'dirib, katta yo'qotishlarga olib kelgan.

Shunday qilib, Kegeyli nomi, uning atalishi uzoq davrlarga borib taqalishi haqida bir necha ilmiy qarashlarning borligini ilmning o'zi isbotlagan. Albatta, Kegeyli etnotoponimlari o'sha yerda yashab shakllanib rivojlangan xalqning etnografik joylashuvi, urf-odatlarini ilmiy jihatdan tahlil etar ekanmiz urug'-qabila tushunchalarini, ularga qo'yilgan nomlarni o'rganishimizga to'g'ri keladi.

Masalan, u yerdagi rayon toponimikasining eng katta qatlami - bu qoraqalpoq urug'larining nomlari bilan bog'liq. Qo'ng'iroq urug'i: Kegeyli hududida asosan Qo'ng'iroq urug'ining Cho'llik va Jovung'ir bo'limlari yashaydi. Masalan, Ashamayli, Qiyot, Qonli kabi kichik qishloq nomlari shu urug'larning o'sha yerda ko'p yillar davomida yashab kelganligidan darak beradi. Bular haqida M.Nizanovning Qoraqalpoqlar nomli asarida ko'rsatilgan misol uchun T. L. Jdankoning aytishicha, qipchoq qavmining tarkibidagi urug'. Qipchoqlarda toza qang'li otliq yana bir urug' guruhi ham bo'lgan. Ayrim qang'li urug'ining odamlari (masalan: Bozorboy Atashev va b.) Qang'li qipchoqqa emas, balki xitoyga kiradi deb keltiradi. Qipchoq qang'lilari Davqara, Kegeylidan sharqda Ko'ko'zakning bo'yida joylashgan. Arxiv ma'lumotlarida qo'ng'iroq qavmi bo'lib, u ashamayli qang'li, armonchi qang'li, qo'char qang'li, cho'michli qang'li, aql xo'ja qang'li, juvonsan qang'li kabi urug'larga bo'linganligi ko'rsatilgan. Shu bilan birga, ular 375 xo'jalikdan iborat bo'lib, 75 no'kar, 225 qazuvchi berishga tegishli ekani, XIX asrda Mahmud, Abdi, Nag'metulla kabi biylari Doniyol, Bekniyoz degan askar boshliqlari, XX asrning boshida Tursinbek otaliq kabi amaldorlari bo'lgani arxivda yozilgan. O'zbek, qozoq, no'g'ay xalqlarida ham qang'li otliq ko'chim urug'i bo'lgan. XI-XII asrda turkiy qavmlar - urug' birlashmasi hisoblangan qang'li haqida S. P. Tolstov o'zining "Qadimgi Xorazm" nomli kitobida bir qancha ma'lumot beradi. Keneges qabila bo'lib, u o'zbek, no'g'aylarda ham bo'lgan. Qoraqalpoq keneges o'n to'rt urug' tarkibida bo'lib, XIX asrning boshida Yangidaryo atrofida yashagan.

Keneges qavm sifatida - aranchi, oqtog'in, taroqli, dobal, oymovut, o'mir, dumbozoq, no'kis degan 8 urug'dan iborat. U urug'lar o'z navbatida 21 qabilaga bo'linadi. 1912-1913-yillari ularning soni 8604 kishidan iborat bo'lib, asosan Yangibozor va Kegeyli volostida joylashgan. Keneges bilan Mang'itning bobosi bir bo'lgan. Xiva davlat arxivida kenegeslardan Ernazar otaliq, Davlatiyor biy, Tojimurod biy, Tojimurod biy, Sarim biy, Xudaybergan biy, Nurali biy, Almuxammad biy, Yusup biy, Fozilbek yuzboshi, Rahmat yuzboshi, Amantay yuzboshi kabi biylari bo'lgan. Shunday qilib Kegeyli hududida qavm urug'lar hozirgacha yashab kelmoqda va hududdagi joy nomlari o'tmishdagi etnik tarkib hamda ijtimoiy hayot haqida qimmatli ma'lumotlarni saqlaydi.

Xulosa qilib aytganda, Kegeyli etnotoponimlari hududning boy tarixiy va etnik tafakkurini saqlab qolgan maxsus manbalardan biridir. Ularni tadqiq etish orqali ertak xalqlarining tarkibi, migratsiya jarayonlari va hududning tarixiy rivojlanish bosqichlari haqida ilmiy xulosalar chiqarish mumkin. Shu sababli etno-toponimlarni o'rganish tilshunoslik bilan bir qatorda tarix va etnografiya fanlari uchun ham muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Жданко Т. Очерки исторической этнографии каракалпаков. Родо-племенная структура и расселение в XIX — начале XX века. М.—Л. 1950 г.
2. Камалов С. Қарақалпақлардың халық болып қәлиплесиўи ҳәм оның мәмлекетлигиниң тарийхынан. Н., 2001.
3. Moyanov J. Kegeyli tariyx jilnamasinda. N., "Bilim". 2009.
4. Nızanov M. Qaraqalpaqlar. N., 2020. II tom.